



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



NAZAR ESHONQUL VA G'ARB ADABIYOTI

Baxshilloeva Madina Ixtiyorovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

O'zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistri

Ilmiy rahbar: Sh.N.Ahmedova

Professor, Osiyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Nazar Eshonqul ijodi, o'zbek adabiyoti va g'arb adabiyotining o'zga xos jihatlari tahlil qilinadi. Yangi tafakkur, ekzistensializm va postmodernizm tamoyillari yoritiladi. Ushbu maqolada yozuvchi ijodi va G'arb adabiyotining mushtarak va farqli tomonlari, ularning ijodiy va falsafiy uyg'unligi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Qiyosiy tahlil, badiiy adabiyot, badiiy tahlil, ma'naviy qadriyat, poetik ifoda, ijtimoiy ruh, adabiy talqin, matonat, estetik yondashuv.*

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o'zbek adabiyotida yangi tafakkur, falsafiy mushohada va badiiy izlanishlar kuchaydi. Bu davrda yaratilgan asarlar milliy an'analarni saqlagan holda, G'arb adabiyotida shakllangan modernizm, ekzistensializm va postmodernizm tamoyillarini o'zlashtirishga intilgan asarlar turkumiga kirgan. Ayniqsa, Nazar Eshonqul ijodi bu jarayonda alohida e'tiborga loyiqdir. Nazar Eshonqul asarlarida inson ruhiyati, ichki kechinmalar va ma'naviy izlanishlar markaziy mavzudir. Shu sababli uning ijodini G'arb adabiyoti bilan qiyosiy tahlil qilish ilmiy jihatdan muhimdir. Ushbu maqolada yozuvchi ijodi va G'arb adabiyotining mushtarak va farqli tomonlari, ularning ijodiy va falsafiy uyg'unligi tahlil qilinadi.

G'arb adabiyotida modernizm va ekzistensializm

XX asr boshlarida G'arb adabiyotida modernizm oqimi shakllanib, an'anaviy realizm cheklanganligi tan olindi. Shu davrdan O'zbek adabiyotida ham realistlik asarlar yozish salmog'i ko'paydi. Bu davrda Abdulla Qodiriyning asarlaridan boshlangan realistlik ruh Cho'lpon, Oybek, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Asqad Muxtor asarlarida yaqqol ochib berildi. Modernist ijodkorlar tashqi voqelikdan ko'ra insonning ichki olamiga, ruhiy kechinmalariga e'tibor qaratdilar. Jumladan James Joys, Virginia Vulf, Frans Kafka kabi yozuvchilar o'z asarlarida:

- ong oqimi va ichki monolog;
- ramziy va mavhum tasvirlar;
- syujetdan ko'ra falsafiy mazmunning ustuvorligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi talqinlarni biz Nazar Eshonqulning "Sharpa", "Tobut", "Ozod qushlar", "Oq alanga", "Qaytish", "Maymun yetaklagan odam" kabi hikoyalarda ham yaqqol ko'ramiz. Yozuvching adabiy mahoratini asarlarida g'arb adabiyoti bilan sharq





adabiyotini uyg'un ravishda olib borishi orqali kuzatamiz. Bu haqda Yo'ldosh Solijonov shunday deydi:

“Iste'dodli yozuvchi Nazar Eshonqul hozirgi o'zbek adabiyotida dunyo adabiyotining eng ilg'or va zamonaviy fazilatlarini ijodiy o'zlashtirayotgan va buyuk Sharq adabiyoti an'analari bilan muvaffaqiyatli sintezlashtirayotgan mohir san'atkorlardan biridir. Shu boisdan jahon adabiyotidagi ong oqimi asosida yaratilgan asarlar mutolaasidan keyin o'zbek adibi Nazar Eshonqulning qissa hamda hikoyalarini o'qish g'oyat maroqlidir. Chunki avval tushunmagan, anglab yetmagan narsalarni ular bilan o'zaro taqqoslab, mag'zini chaqish oson kechadi. Buning boisi shundaki, N.Eshonqulning o'zi ko'proq G'arb adabiyoti namunalarini mutolaa qiladi, ularning o'ziga xos fazilatlarini chuqur o'zlashtirib, ijodida unumli foydalanishga urinadi.”[1] Shoir va munaqqid Xurshid Davron esa yozuvchi haqda:

“Nazarimda, Jeyms Joys, Marsel Prust, Samyuel Bekket, Frans Kafka, Jorj Oruell, Alber Kamyu, Jan Pol Sartr kabilar uning eng ko'p o'qiydigan va o'rganadigan suyuqlik adiblaridir.” deya ta'rif beradi.[2] Yozuvchi ulardan yangi ifoda vositalarini, inson ichki olamini tadqiq etishning yangicha usullarini o'rganadi, voqelik hamda qahramonlar xatti-harakatlarini tabiiy va teran aks ettirishning G'arb modern adabiyotiga xos so'z, ibora, nutq qurilishi va badiiy tasvir imkoniyatlaridan samarali foydalanadi.

G'arb adabiyotida “Ekzistensializm” atamasi insonning hayotdagi yolg'izligi, tanlov erkinligi va mas'uliyati masalalarini ilgari suradi. Albert Jamus va Jon Paul Sartre asarlarida inson o'z hayotining ma'nosini o'zi yaratishi g'oyasi markaziy o'rin tutadi. Bu oqimlarda syujetdan ko'ra falsafiy muammolar va psixologik izlanishlar muhim hisoblangani bois, yozuvchi Nazar Eshonqul asarlarida ham bu izlanishlar yaqqol ko'rinadi.

II. Nazar Eshonqul ijodida falsafiy tafakkur

Nazar Eshonqul hikoya va esseistik asarlarida inson ruhiyati, ichki ziddiyatlar va ma'naviy izlanishlar asosiy mavzudir. Uning Ijod falsafasi asarida adabiyot insonni tushunish va anglash vositasi sifatida talqin qilinadi.

Nazar Eshonqul ijodida badiiy matn tashqi voqeani emas, balki ichki holatni ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois uning nasrida:

- ramziy obrazlar;
- mavhum makon va vaqt;
- ichki monologlar;

keng qo'llaniladi. Bu jihat Frans Kafka ijodidagi noaniq muhit va psixologik bosim bilan qiyoslanadi. Biroq yozuvchi ijodida bu elementlar milliy va sharqona falsafa bilan uyg'unlashadi, shaxsiy kechinmalar jamiyat va tarixiy xotira bilan bog'lanadi. Yozuvchining "Ijod falsafasi" asarida yozuvchi ichki monologdan juda ko'p foydalanadi. Ayniqsa ong osti va insonning ruhiyati, psixikasi haqida chuqur falsafiy yondashadi. Faylasuf olimlarning adabiyot, inson haqidagi qarashlarni o'rganib ularni qiyoslaydi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



"Inson adabiyot uchun ham, psixologiya uchun ham jumboq edi. Har ikkisi ham bu jumboqni ochishga harakat qilardi. XX asr boshiga kelib, adabiyot ham, Freyd ham bitta savolga "Inson kim? Qanday mavjudot? Botini qanday? Mohiyati qayerda? Uning istak-xohishlarining manbasi qayerda?!" degan savollarga javob izlashdi va birgalikda, Freyd o‘z fikrlarini asoslash uchun Aristotel, Shopengauer, Gyote, Shekspir kabi o‘nlab adiblarning asarlariga suyandi, qarashlariga, obrazlariga, adabiy majozlarga tayandi. Tabiiyki, adabiyot ham keyinchalik Freydga tayanib, inson jumbog‘iga javob topishga urindi...

Umuman, Pol Gogen asarlari insonning mohiyatini o‘rganadigan o‘ziga xos san’at namunalari sanaladi. Uning kartinalari aql-idrok duch kelishi mumkin bo‘lgan barcha savollarga bo‘yoqlar, ranglar orqali javob izlanadi, inson degan jumboqni yechishga urindi. U butun ijod yo‘lida "Inson kim, qayerdan kelgan, qayerga borayapti?! Nega kelgan?! Nim a qilishi kerak?! Xaloskorlik qayerda?! Mohiyat nimada?!" degan savollarga javob izlaydi. Bu savollarga javobni u tamaddun markazi bo‘lgan Yevropadan emas, olis qit’alardan, olis orollardan, odam qadami yetmagan yovvoyi tabiat, ibtidoiy ordamlar ichidan, hali yaralganidan beri bus-butun turgan changalzorlar, o‘rmonlardan, yovvoyi va madaniy ong qoidalaridan xoli bo‘lgan ovloq go‘shalardan izladi. Musavvir triptixlari — bu inson tiynatining ong ostida yotgan manzaralari, inson ong ostidagi hissiyotlar, kechinmalarning turli shakl va qiyofalarda namoyon bo‘lishidir. Rassomning tasavvur va xayol dunyosi Freyddan to‘rt yuz yillar oldin insonning ong osti shuuri manzaralarini chizib, tasvirlab bergandi. Toki Freydgacha Bosx asarlari deyarli unut bo‘lgan, uni qo‘rqinchli tushlarni chizgan jodugar, afsungar degan ayblar taqalgan. Ammo Freydning ong osti hissiyotlari to‘g‘risidagi psixoanaliz usuli paydo bo‘lgach, musavvir aynan Freyd nazarda tugan ong ostini to‘rt yuz yil oldin mo‘yqalami va tasavvuri bilan aks ettirganini anglashdi va uni qaytadan kashf etish boshlandi." [3]

Nazar Eshonqulning "Mendan mengacha" falsafiy asarida ham insonning ichki taraqqiyoti, o‘zini anglash va ruhiy o‘shish jarayonini keng ifodalanadi.

Bu tushuncha G‘arb modern adabiyotidagi "ichki yo‘l" konsepsiyasiga yaqin turadi. Masalan, Jeyms Joys qahramonlari tashqi harakatdan ko‘ra ichki o‘zgarish orqali rivojlanadi. Farqli jihat shundaki, Nazar Eshonqul ijodida bu ichki yo‘l milliy mentalitet, sharqona tafakkur va axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan. G‘arb adabiyotida individualizm ustuvorlik qilishi, shaxsiy iztirob jamiyat va tarixiy xotira bilan bog‘lanishga zamin yaratadi. Bu ruh sharqda Nazar Eshonqul hikoyalari, romanlari umuman olganda ijod olamining har bir tomirida ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Й.Солижонов. Жавоб излаётган одамлар // ҲОЗИРГИ АДАБИЙ ЖАРАЁН
МАСАЛАЛАРИ .АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОЦЕССА
CURRENT ISSUES OF THE LITERARY PROCESS. HOZIRGI ADABIY JARAYON
MASALALARI . Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Тошкент – 2022, Nazar Eshonqul tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti. Toshkent – 2022, 6.18-19

2. Nazar Eshonqul mutolaa qiladi. “Tafakkur” jurnali, № 2, 2009.

3. Xurshid Davron kutubxonasi sayti // <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/nazar-eshonqul-ijod-falsafasi-va-mendan-mengacha-kitoblaridan.html>

